



DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARINING QARORLARINI HAQIQIY EMAS  
DEB TOPISH – FUQAROLIK HUQUQLARINI HIMOYA QILISH USULI  
SIFATIDA

**Parpixo'Jayev Nusratullo Nig'Matullo O'g'li**

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazlari va FXDYO organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshqarma boshlig'i.

Tel:+998946319999, e-mail: NP.NideX@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7181269>

ANNOTATSIYA

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 12-moddasi ikkinchi qismida mahalliy davlat hokimiyati organlarining hujjatlari haqiqiy emas deb topilgan holatlarda huquqni ushbu kodeksning 11-moddasida ko'rsatilgan usul bilan himoyalashni nazarda tutadi. Huquqlari buzilgan subyekt, jumladan, huquq buzilgunga qadar mavjud bo'lgan holatni tiklanishini, Kodeksning 15-moddasi tartibida zarar qoplanishini talab qilishi, shuningdek, 11-moddasida ko'rsatilgan boshqa usullardan ham foydalanishi mumkin. Sud tomonidan normativ bo'lmagan yoki normativ hujjatning haqiqiy emas deb topilishi u qabul qilingan paytdan boshlab yuridik oqibatlarni keltirib chiqarmaganini bildiradi. Ushbu tezisdan aynan davlat hokimiyati organlarining qarorlarini haqiqiy emas deb topish va uning oqibatlarini qo'llash fuqarolik huquqlarini himoya qilish usuli sifatida tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: fuqarolik huquqiy tartibga solish, "xususiy-huquqiy" boshqaruv, fuqarolik huquqiy javobgarlik, haqiqiy zarar, boy berilgan foyda, restitutsiya

ANNOTATION

The second part of Article 12 of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan provides for the protection of the right in cases where the documents of local state authorities are found to be invalid by the method specified in Article 11 of this Code. The subject whose rights have been violated may demand, among other things, the restoration of the situation that existed before the violation of the right, compensation of damages in accordance with Article 15 of the Code, and also use other methods specified in Article 11. The invalidity of a non-normative or normative document by the court means that it did not cause legal consequences from the moment of its adoption. In this thesis, the invalidation of the decisions of state authorities and the application of its consequences were analyzed as a way of protecting civil rights.

Keywords: civil-law regulation, "private-law" management, civil-law responsibility, real damage, lost profits, restitution.





Fuqarolik huquq va majburiyatlar paydo bo'lishi uchun qonunda nazarda tutilgan mahalliy davlat hokimiyati organlarining aktlari asos sifatida belgilangan.

Qonunchilikka binoan, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlarini bekor qilish yoki haqiqiy emas deb topishning o'ziga xos asoslari va tartib-tamoyillari mavjud bo'lib, ushbu qaror mazmun mohiyati qonunchilikka nomuvofiqligi sababli, yoki vokatli organ, mansabdor shaxs tomonidan o'z vakolat doirasidan chiqqan holda qabul qilingan taqdirda, ushbu qarorni qabul qilgan davlat organi, yoki mansabdor shaxs tomonidan yuqori turuvchi organ, yoki mansabdor shaxs tomonidan bekor qilinadi.

Davlat organining qarorida xususiy-huquqiy munosabatlarni o'rnatish yoki bekor qilishga qaratilgan fuqarolik-huquqiy normalari mavjud bo'lishi mumkin.

Fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullaridan biri, bu davlat organi, yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining aktini bekor qilishdir.

Mahalliy davlat hokimiyatining qonunchilikka muvofiq bo'lmagan hamda fuqarolar yoki yuridik shaxslarning fuqarolik huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzilishiga olib keladigan hujjat sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Davlat organining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining qonun hujjatlariga muvofiq bo'lmagan hamda fuqaroning yoki yuridik shaxsning fuqarolik huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan hujjati sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Boshqaruv sohasidagi hujjat va harakatlarning sud tomonidan tekshirilishi fuqarolik huquqlarini amalga oshirish va ularga rioya qilishning muhim kafolati bo'lib xizmat qiladi. Sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin bo'lgan davlat organining hujjati deb O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 8-moddasining ikkinchi qismida ko'rsatilgan va qonun tomonidan fuqarolik huquq hamda burchlarining vujudga kelishi uchun asos sifatida nazarda tutilgan hujjatlar tushuniladi. Bunday hujjatlar sirasiga fuqarolik huquq va burchlarini tasarruf qilish bo'yicha harakatlarni o'z ichiga olgan buyruqlar, ko'rsatmalar, xatlar va boshqa hujjatlar kiritilishi mumkin. Davlat organining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining normativ bo'lmagan hujjatini haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi talab har doim, normativ bo'lgan hujjatga oid bunday talab esa faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda taqdim etilishi mumkin.

Fuqarolik protsessual kodeksiga ko'ra fuqaro o'zining huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar (qarorlar) ustidan bevosita sudga yoki bo'ysunish tartibida yuqori organga, mansabdor shaxsga murojaat qilishga haqliro





Normativ hujjatni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi talab faqat qonunda ko'rsatilgan holatlardagina taqdim etilishi mumkin. O'zR FK 12-moddasining qoidalarida faqat davlat organlari yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan qabul qilinadigan hujjatlar ko'rsatiladi. Ammo bu, nodavlat organlar, masalan, jamoat tashkilotlari, xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarining boshqaruv organlari hamda boshqalar tomonidan chiqarilgan, fuqarolik huquqlarini buzuvchi va qonunga muvofiq bo'lmagan hujjatlar haqiqiy emas deb topilishi mumkin emasli gini anglatmaydi. FKning 12-moddasiga ko'ra himoyalash qonunda nazarda tutilganidan boshqa usullarda ham amalga oshirilishi mumkin. O'zR FPK II bo'limining III-kichik bo'limida davlat organlarining va boshqa organlarning, shuningdek, mansabdor shaxslarning harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyat va arizalar bo'yicha ish yurituvi umumiy yurisdiksiya sudiga taalluqli ekanligi belgilangan.

Fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga murojaatlarini ko'rib chiqish tartibi to'g'risidagi Nizomga ko'ra, Konstitutsiyaviy sudda bevosita ravishda fuqarolar tomonidan ularning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida hamda O'zbekiston Respublikasi tomonidan olingan xalqaro shartno malardagi majburiyatlarda belgilangan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, qonunlar yoki Oliy Majlis palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining qarorlari qabul qilinishi natijasida buzilishi to'g'risidagi murojaatlari o'rganiladi. Normativ hujjatlar ustidan bevosita yuridik shaxslarning to'g'ridan-to'g'ri shikoyat keltirishi qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan.

Fuqarolik-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish zarurati yuqori turuvchi davlat organi quyi davlat organining noqonuniy chiqargan qarori bo'yicha harakatsizligi natijasida yuzaga keladi, bunda qarorni bekor qilishning ma'muriy vositalariga emas, balki fuqarolik-huquqiy tartibga solishga extiyoj paydo bo'ladi, ya'ni fuqarolik sudiga murojaat qilish orqali (xususiy huquqiy nizo bo'lgan taqdirda) mahalliy davlat hokimiyati qarorini xaqiqiy emas deb topilishi va bekor qilinishiga erishish mumkin.

Davlat manfaatlarini va mahalliy davlat hokimiyati organlari, mansabdor shaxslarining fuqarolik huquqiy munosabatlardagi manfaatlari aniq ajratilib qo'yilishi lozim, vaholanki davlat manfaatlari ro'kach qilinib alohida mansabdor shaxslarning manfaatlari ilgari surilishi mumkin.





Fuqaroviy-huquqiy oqibatlar vujudga keltiruvchi mahalliy davlat hokimiyati organining hujjatini haqiqiy emas deb topishda Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan da'vo muddati qo'llaniladi.

Fuqaro va yuridik shaxslar mahalliy davlat hokimiyati mansabdor shaxslari harakatlari, harakatsizligi yoki qarorlari asosida noixtiyoriy ravishda davlat huquqiy munosabatlariga jalb qilinadi va o'z huquq va manfaatlarini himoya qilishga majbur bo'ladi.

**References:**

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi
2. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi
3. O'zbekiston Respublikasining Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi qonuni
4. Маъмурий ҳуқуқ ва процесс /С.А.Муратаев, Б.Т.Мусаев, Д.Р.Артиков /дарслик/. Тошкент: "Innovatsiya-Ziyo", 2020. 420
5. Erkin Xojiyev, To'lqin Xojiyev. Ma'muriy huquq. Darslik. —Т.: «Fan va texnologiya», 2008. —608 b.
6. Козлов Ю.М. Административное право. Учебник. —2-е изд., перераб. и доп. —М.: «Юрист», 2003. С. 174—175.
7. Koryogdiyev, B. U. O. (2021). BITIMNI HAQIQIY EMAS DEB TOPISH VA UNING OQIBATLARINI QOLLASH FUQAROLIK HUQUQLARINI HIMOYA QILISH VOSITASI SIFATIDA. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(11), 211-225.
8. Корёғдиев, Б. У. Ў. (2022). ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ШАРТНОМАЛАРНИНГ ЮРИДИК ФАКТ СИФАТИДАГИ ТАЛҚИНИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(7), 271-278.

